



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Navoiy viloyatida kichik tadbirkorlik

2023- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma‘lumotlar

Navoiy viloyatida kichik tadbirkorlik

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

2023- yilning 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni **19 942** tani tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **1 687** taga yoki **3,3 %** ga kam. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **18,7** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar


2023- yilning yanvar-iyunida **2 201** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **4,7 %** ga kam demakdir.

Yuridik shaxs – o‘z mulkida, xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o‘z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da‘vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

2023- yilning 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo‘lgan sohalar bo‘yicha soni va ulushi



2019-2023- yillar 1- iyul holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz), ming birlikda



Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

Tuman va shaharlar bo'yicha 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

2022- y.

2023- y.

4 814	Navoiy shahri	4 228
3 532	Karmana tumani	2 921
2 905	Qiziltepa tumani	2 742
2 595	Xatirchi tumani	2 411
2 290	Navbahor tumani	2 131
1 591	Zarafshon shahri	1 556
1 445	Nurota tumani	1 363
819	Konimex tumani	885
827	Uchquduq tumani	795
517	Tomdi tumani	558
296	G'ozg'on shahri	352

2023- yil 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni jami **19 942** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **2 201** tani tashkil etdi.

2023- yilning 1- iyul holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Navoiy shahrida **4 228** tani yoki jamiga nisbatan **21,2 %** ni tashkil etdi.

1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

21 629

2022- y.

19942

2023- y.

19 322

2021- y.

16 974


11 853

2019- y.


2020- y.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbatli

Tuman va shaharlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatli, birlikda)*



Navoiy viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatli 1- iyul holatiga, birlikda



2023- yil 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har **1000** aholiga nisbatan **18,7** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2022- yilga nisbatan **2,0** birlikka kamaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har **1000** aholiga nisbatli eng yuqori ko'rsatkich G'ozg'on shahrida **38,3** birlik, Tomdi tumanida **35,5** birlik, Navoiy shahrida **26,7** birlik, Konimex tumanida **23,6** birlik va Karmana tumanida **21,3** birlikka yetdi.


* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Navoiy viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

Eng yuqori ko'rsatkich

G'ozg'on shahar
– 38,3 birlik.




O'rta ko'rsatkich

Uchquduq tumani
– 20,2 birlik.



Eng past ko'rsatkich

Xatirchi tumani
– 11,4 birlik.



Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich G'ozg'on shahrida **38,3** birlik, Tomdi tumanida **35,5** birlik, Navoiy shahrida **26,7** birlik, Konimex tumanida **23,6** birlik, Karmana tumanida **21,3** birlik, Uchquduq tumanida **20,2** birlik, Zarafshon shahrida **17,8** birlik, Navbahor tumanida **17,8** birlik, Qiziltepa tumanida **17,1** birlik kuzatildi.

Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

2023- yil 1- iyul holatiga har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlarining ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda

Karmana tumani

21,3

Navoiy shahri

26,7

G'ozg'on shahri

35,5

Konimex tumani

38,3

Tomdi tumani

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar


**Yanvar-iyun oylarida tuman va shaharlardan
bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda**

2022- y.

2023- y.

374	Navoiy sh.	354
291	Karmana t.	319
325	Qiziltepa t.	278
308	Xatirchi t.	272
237	Navbahor t.	221
196	Zarafshon sh.	167
194	Uchquduq t.	166
135	Nurota t.	145
109	Konimex t.	142
84	Tomdi t.	86
57	G'ozg'on sh.	51

**2023- yilning yanvar-iyunida yangi
tashkil etilgan kichik korxona va
mikrofirmalarning tuman va shaharlardan
bo'yicha ulushi, % da**




2023- yilning yanvar-iyunida hududlar
bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona
va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng
ko'p ulushi Navoiy shahri – **16,1** %,
Karmana tumani – **14,5** %, Qiziltepa tumani–
12,6 %, Xatirchi tumani – **12,4** %, Navbahor
tumani – **10,0** %, Zarafshon shahri – **7,6** %,
Uchquduq tumani – **7,5** % hissalariga to'g'ri
keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2022-2023- yillarning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan tumanlar va shahar, birlikda




2023- yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p kichik korxona va mikrofirma savdoda **750** ta, sanoatda **426** ta hamda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida **360** ta yangidan tashkil etilgan.


Navoiy viloyatining tumanlari va shaharlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko‘p kichik korxona va mikrofirma Navoiy shahrida **354** ta, Karmana tumanida **319** ta hamda Qiziltepa tumanida **278** ta yangidan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2019-2023- yillarning yanvar-iyun oylari davomida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlik




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2019-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlik



So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab - quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2019-2023- yillarning yanvar-iyun oylari davomida jami **12 442** ta kichik korxona va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida – **4 442** (yoki **35,7 %**) ta, sanoat sohasida – **2 762** (yoki **22,2 %**) ta, xizmatlar sohasida – **2 595** (yoki **20,9 %**) ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **2 005** (yoki **16,1 %**) ta va qurilish sohasida – **638** (yoki **5,1 %**) tani tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da




■ 2022- y. ■ 2023- y.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari

2018-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining
YAHMdagi ulushi dinamikasi , % da

2023- yilning yanvar-iyunida YAHM
tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **24,6** % ni tashkil qilib,
2022- yilning tegishli davriga nisbatan
0,9 % ga oshgan..



2023- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng
yuqori ulushga ega bo‘lgan tarmoqlari, % da



2023- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari sanoatda
71,6 % ni, xizmatlarda **13,5** % ni, qishloq xo‘jaligida **11,3** % ni, qurlilishda **3,6** % ni tashkil etdi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari (yanvar-iyun oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati

Hajmi, mlrd. so‘mda




Ulushi, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati

Hajmi, mlrd. so‘mda




Ulushi, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati

Hajmi, mlrd. so‘mda




Ulushi, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari (yanvar-iyun oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo‘jaligi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2023- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm



2023- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **3 789,6** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Karmana tumani (**948,2** mlrd. so'm), Navoiy shahri (**760,5** mlrd. so'm), Qiziltepa tumani (**541,2** mlrd. so'm), Xatirchi tumani (**411,9** mlrd. so'm) va Zarafshon shahri (**318,4** mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keldi. Tomdida (**32,1** mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, mlrd. so'mda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2018-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi dinamikasi, % da

2023- yil yanvar-iyunida sanoat ishlabi chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **8,0 %** ni tashkil etdi.



2023- yilning yanvar-iyunida hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini G‘ozg‘on shahri, Tomdi va Uchquduq tumanlari (**100,0** %), Zarafshon shahri (**99,5** %), Xatirchi tumani (**43,4** %), Nurota tumani (**87,5** %), Qiziltepa tumani (**59,3** %), Navbahor tumani (**49,2** %), Konimex tumani (**38,1** %), Karmana tumani (**22,5** %) va Navoiy shahri (**1,9** %) tashkil etdi.



Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



2023- yilning yanvar-iyunida tuman va shahar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi

G’ozg‘on sh.	3,2	100,0
Karmana t.	337,3	100,0
Navbahor t.	259,8	100,0
Xatirchi t.	251,9	100,0
Uchquduq t.	57,1	99,3
Zarafshon sh.	172,6	89,3
Navoiy sh.	579,6	87,9
Konimex t.	53,5	86,8
Qiziltepa t.	522,9	77,2
Nurota t.	224,2	54,0
Tomdi t.	28,8	30,8


hajmi, mlrd. so'mda ↑
ulushi, % da ↑

2023- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **2 490,9** milliard so‘mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **82,7%** ini tashkil etdi. O‘sish sur‘ati 2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **110,6** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Navoiy shahri (**579,6** mlrd. so‘m), Qiziltepa tumani (**522,9** mlrd. so‘m), Karmana tumani (**337,3** mlrd. so‘m), Navbahor tumani (**259,8** mlrd. so‘m), Xatirchi tumani (**251,9** mlrd. so‘m), Nurota tumani (**224,2** mlrd. so‘m) hamda Zarafshon shahri (**172,6** mlrd. so‘m) da qayd etildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2018-2023- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o‘zgarish dinamikasi, mlrd. so‘mda




2023- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **4 918,9** milliard so‘mni yoki jami investitsiya hajmining **51,5 %**ini tashkil etdi. O‘sish sur‘ati 2022- yilning mos davriga nisbatan **128,7 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Zarafshon shahri (**1 379,0** mlrd. so‘m), Navoiy shahri (**827,5** mlrd. so‘m), Karmana tumani (**803,8** mlrd. so‘m), Qiziltepa tumani (**420,2** mlrd. so‘m), Xatirchi tumani (**401,0** mlrd. so‘m), Navbahor tumani (**269,9** mlrd. so‘m), Tomdi tumani (**261,1** mlrd. so‘m) hamda Nurota tumani (**200,4** mlrd. so‘m) da qayd etildi.

2018-2023- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da




2023- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi



Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligi faoliyati

2023- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi **6 980,4** mlrd. so‘mni yoki jami qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmining **98,1** % ini tashkil etdi. O‘sish sur‘ati 2022- yilning tegishli davriga nisbatan **103,4** % ni tashkil qildi.

2018-2023- yillarning yanvar-iyuida kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo‘jaligi hajmining o‘zgarish dinamikasi, trln. so‘mda




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi Xatirchi tumani (**2006,5** mlrd. so‘m), Qiziltepa tumani (**1382,8** mlrd. so‘m), Navbahor tumani (**1087,9** mlrd. so‘m), Karmana tumani (**989,3** mlrd. so‘m), Nurota tumani (**489,3** mlrd. so‘m) hamda Konimex tumani (**341,3** mlrd.so‘m) da qayd etildi.

2023- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi

Zarafshon sh.	36,8	100,0
Qiziltepa t.	1382,8	99,9
Tomdi t.	328,6	99,9
Uchquduq t.	224,3	99,9
Nurota t.	489,3	98,9
Navbahor t.	1087,9	99,7
Navoiy sh.	38,3	98,9
Xatirchi t.	2006,5	98,1
Karmana t.	989,3	97,7
G’ozg‘on sh.	55,2	94,0
Konimex t.	341,3	85,4

↑ hajmi, trln. so‘mda
↑ ulushi, % da

2018-2023- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligidagi ulushi dinamikasi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi




2023- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **4 442,3** mlrd. so‘mni yoki umumiyligi chakana savdo tovar aylanmasining **92,9 %** ini tashkil etib, o‘sish sur‘ati 2022- yilning tegishli davriga nisbatan **105,2 %** ni tashkil qildi.

2023- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi

Uchquduq t.	243,1	99,5
Qiziltepa t.	599,5	98,9
G’ozg‘on sh.	45,3	99,5
Tomdi t.	48,7	98,9
Nurota t.	197,7	97,9
Xatirchi t.	620,8	97,5
Konimex t.	148,0	97,0
Karmana t.	767,5	92,2
Zarafshon sh.	466,5	91,8
Navbahor t.	249,8	89,0
Navoiy sh.	1 055,4	86,3


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Navoiy shahri (**1 055,4** mlrd. so‘m), Karmana tumani (**767,5** mlrd. so‘m), Xatirchi tumani (**620,8** mlrd. so‘m), Qiziltepa tumani (**599,5** mlrd. so‘m), Zarafshon shahri (**466,5** mlrd. so‘m), Navbahor tumani (**249,8** mlrd. so‘m) va Nurota tumani (**197,7** mlrd. so‘m) ga to‘g‘ri keldi.

2018 va 2023- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o‘zgarishi, trln. so‘m




Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatish faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko‘rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yilning yanvar-iyunida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko‘rsatish hajmi, mlrd. so‘mda



2023- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 957,6 mlrd. so‘mlik xizmatlar ko‘rsatildi yoki ko‘rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **56,5 %** ini tashkil qildi va o‘sish sur‘ati 2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **105,8 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p xizmatlar hajmi Navoiy shahri (**738,0** mlrd. so‘m), Karmana tumani (**485,0** mlrd. so‘m), Qiziltepa tumani (**382,4** mlrd. so‘m), Xatirchi tumani (**325,7** mlrd. so‘m), Zarafshon shahri (**319,1** mlrd. so‘m), Navbahor tumani (**222,4** mlrd. so‘m) va Nurota tumani (**180,8** mlrd. so‘m) hissasiga to‘g‘ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatish faoliyati

Xizmatlar sohasi turlarida kichik tadbirkorlik subyektlarining hajmi va ulushi
(yanvar-iyun oylarida)

1 503,5	Savdo xizmatlari	95,2
735,5	Transport xizmatlari	90,8
144,8	Shaxsiy xizmatlar	99,6
194,9	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	56,3
65,7	Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar	77,9
53,7	Boshqa xizmatlar	29,3
78,2	Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar	96,4
61,0	Ijara xizmatlari	94,5
10,8	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	5,1
37,3	Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	52,6
33,3	Ta’lim sohasidagi xizmatlar	17,8
35,1	Me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	13,7
4,1	Moliyaviy xizmatlar	0,3

Hajmi, mlrd. so‘mda


Ulushi, foizda

Yuqoridagi diagramma ma’lumotlariga ko‘ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi savdo xizmatlarida – **95,2 %** (1 503,5 mlrd. so‘m), transport xizmatlarida – **90,8 %** (735,5 mlrd. so‘m), shaxsiy xizmatlarda – **99,6 %** (144,8 mlrd. so‘m) hamda yashash va ovqatlanish xizmatlarida 56,3 % (**194,9** mlrd. so‘m)ni tashkil etdi.


Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi moliyaviy xizmatlarda **0,3 %** (**4,1** mlrd so‘m) kuzatildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-iyun oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi

Xatirchi t.	4 443,0	100,0
Tomdi t.	160,9	100,0
Konimex t.	565,1	100,0
G'ozg'on sh.	1 203,4	100,0
Uchquduq t.	444,6	99,2
Zarafshon sh.	1 241,0	98,3
Karmana t.	10 548,8	43,2
Navbahor t.	1 276,2	9,5
Qiziltepa t.	1 618,6	9,2
Nurota t.	148,1	4,1
Navoiy sh.	2 874,9	1,3

hajmi, ming. AQSH dollar


ulushi, % da

2023- yilning yanvar-iyunida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **24 761,8** ming AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **8,5** % ini tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi G'ozg'on shahriida, Konimex, Tomdi va Xatirchi tumanlarida – **100,0** %, Uchquduq tumanida – **99,2** %, Zarafshon shahrida – **98,3** %, Karmana tumanida – **43,2** %, Navbahor tumanida – **9,5** %, Qiziltepa tumanida – **9,2** % va Nurota tumanida – **4,1** % ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich Navoiy shahriida – **1,3** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yilning yanvar-iyunida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **106 298,3 ming AQSH dollarini** yoki jami importning **34,4 %** ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagagi ulushi, % da



2023- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi G'ozg'on shahrida, Tomdi, Uchquduq va Xatirchi tumanlarida – **100,0 %**, Zarafshon shahrida – **89,6 %**, Qiziltepa tumanida – **89,5 %**, Nurota tumanida – **88,0 %**, Navbahor tumanida – **45,2 %** hamda Karmana tumanida – **41,7 %**, ni tashkil etdi.

G'ozg'on sh.	100,0
Tomdi t.	100,0
Uchquduq t.	100,0
Xatirchi t.	100,0
Zarafshon sh.	89,6
Qiziltepa t.	89,5
Nurota t.	88,0
Navbahor t.	45,2
Karmana t.	41,7
Konimex t.	36,4
Navoiy	18,2

Kichik tadbirkorlik subyektlarininig transport faoliyati

8,4 %

Yuk
tashishda

39,0 %

Yuk
aylanmasida

86,6 %

Yo'lovchi
tashishda

87,9 %

Yo'lovchi
aylanmasida

2023- yilning yanvar-iyunida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **8,4** % ni tashkil etdi. 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,0** % ni tashkil qildi.


2023- yilning yanvar-iyunida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **39,0** % ni tashkil etgan bo'lib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,3** % ni tashkil qildi.

2023- yilning yanvar-iyunida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **86,6** % ni tashkil etib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,6** % ni tashkil qildi.

2023- yilning yanvar-iyunida avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **87,9** % ni tashkil etib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,0** % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yil II chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, birlikda




2023- yil **II** chorak yakunlariga ko‘ra, kichik korxona va mikrofirmalar o‘rtasida tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi.

Ushbu so‘rovnoma da **1 187** ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **632 (53,2 %)** tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **513 (43,2 %)**ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **42 (3,6 %)**ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – **46,7 % (554 ta)**, xizmatlar sohasida – **25,0 % (297 ta)**, sanoatda – **12,5 % (149 ta)**, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – **9,2 % (109 ta)**, qurilishda – **6,6 % (78 ta)** ni tashkil etdi.

2023- yil II chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi

292	Navoiy sh.	24,6
196	Karmana t.	16,5
165	Qiziltepa t.	13,9
138	Xatirchi t.	11,6
98	Navbahor t.	8,3
84	Zarafshon sh.	7,1
67	Konimex t.	5,6
63	Nurota t.	5,3
44	Uchquduq t.	3,7
22	Tomdi t.	1,9
18	G'ozg'on sh.	1,6


Soni, birlikda

Ulushi, foizda

Hududlar kesimida kichik tadbirdorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvida ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Navoiy shahri (**292** ta), Karmana tumani (**196** ta), Qiziltepa tumani (**165** ta) va Xatirchi tumani (**138** ta) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida umumiyl iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi(joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma’lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiyl iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarning soni 2019 yilning yanvar-iyun oylarida **876** tani tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023- yilning yanvar-iyun oylarida kelib esa **1 028** taga yetgan yoki 2019- yilning yanvar-iyuniga nisbatan **152** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning soni 2019 yilning yanvar-iyun oylarida **554** ta bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023- yilning yanvar-iyuniga **908** ta yoki **354** taga oshgan.

O‘z nabatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019 yilning yanvar-iyun oylarida **43** tani tashkil etgan bo‘lsa, 2023- yilning yanvar-iyun oylarida kelib **69** tani tashkil etgan va bu ko‘rsatkich 2019 yilning yanvar-iyuniga nisbatan **26** taga oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida umumiyl iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik



qulay

qoniqarli

qoniqarsiz


Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiyl iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalarining soni 2019- yilning yanvar-iyun oylarida **788** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning yanvar-iyun oylarida kelib esa **981** taga yetgan yoki 2019- yilning yanvar-iyuniga nisbatan **193** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarining soni 2019- yilning yanvar-iyun oylarida **470** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning yanvar-iyun oylarida kelib esa **764** taga yetgan yoki **294** taga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarining soni esa 2019- yilning yanvar-iyun oylarida **20** tani tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-iyun oylarida kelib, bu ko'rsatkich **58** tani tashkil etib, **38** taga oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), % da




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhitini holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning yanvar-iyun oylarida **59,5** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning yanvar-iyun oylarida kelib esa **51,3** % ga yetgan yoki 2019- yilning yanvar-iyuniga nisbatan **8,2** % ga kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2019- yilning yanvar-iyun oylarida **37,6** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- 2019- yilning yanvar- 2019- yilning yanvar-iyuniga **45,3** % yoki **7,7** % ga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019- yilning yanvar-iyun oylarida **2,9** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar- 2019- yilning yanvar-iyuniga kelib, bu ko'rsatkich **3,4** % ga yetgan yoki **0,5** % ga ko'paygan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2023- yillar yanvar-iyun oylarida umumiyligi qitishodiy holatining baholanish dinamikasi (o'tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuvi ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiyligi iqtisodiy vaziyatini o'tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning yanvar-iyun oylarida **61,6** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning yanvar-iyun oylarida kelib esa **54,4** % ga yetgan yoki 2019- yilning yanvar-iyuniga nisbatan **7,2** % ga kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarning ulushi 2019- yilning yanvar-iyun oylarida **36,8** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning yanvar-iyun oylarida **42,4** % yoki **5,6** % ga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019- yilning yanvar-iyun oylarida **1,6** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-iyun oylarida kelib, bu ko'rsatkich **3,2** % yoki **1,6** % ga oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2023- yilning **II** choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida – **63,3** % ni, sanoat sohasida– **57,0** % ni, qurilish sohasida– **55,1** % ni, savdo sohasida – **52,5** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – **48,2** % ni, savdo sohasida – **44,4** % ni, qurilish sohasida– **41,0** % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi sanoat sohasida– **6,0** % ni, qurilish sohasida – **3,9** % ni, xizmatlar sohasida – **3,3** % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2023- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida – **71,6** % ni, sanoat sohasida – **59,7** % ni va qurilish sohasida – **59,0** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdo sohasida- **42,2** % ni, xizmatlar sohasida – **39,7** % va qurilish sohasida – **37,2** % ni, tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi sanoat sohasida – **4,7** % ni, qurilish sohasida – **3,8** % ni va xizmatlar sohasida – **2,7** % tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiyligi aylanmasi	40,2	55,5	4,2
Band bo'lganlar soni	18,6	77,9	3,5
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	24,6	71,0	4,4
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	22,0	73,3	4,7
Raqobat muhiti	37,9	58,6	3,5

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiyligi aylanmasi	42,6	54,4	3,0
Band bo'lganlar soni	22,0	75,5	2,5
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	26,8	69,5	3,7
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	24,4	71,3	4,3
Raqobat muhiti	40,2	56,3	3,5

* Faqat raqobat muhitiga tegishli


Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2023- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash,
o‘tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o‘zgarishlar, % da**



■ ko‘payish (yaxshilanish*) ■ o‘zgarishsiz ■ kamayish (yomonlashish*)

2023- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o‘zgarishlar istiqboli, % da



■ ko‘payish (yaxshilanish*) ■ o‘zgarishsiz ■ kamayish (yomonlashish*)

* Faqat raqobat muhitiga tegishli